

SERVIS XIZMATI FANINI O'QITISHDA KEYS-STADI METODIDAN FOYDALANISH

Orisheva Zuxra Xamidullayevna

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Fizika va texnologik ta'lim fakulteti,

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi, Jizzax, O'zbekiston

e-mail:zuhra.orisheva.79@mail.ru

Ilmiy rahbar: Orishev J.B.

Аннотасија: *Maqolada keys-stadi metodining mazmuni va bu metoddan Servis xizmati fanida foydalanish imkoniyatlari xususida mulohazalar bayon etiladi*

Калит со'з: *Keys-stadi metodi, Servis xizmati, keys, keys yechimi, muammo, muhokama.*

Аннотация: *В статье описывается содержание метода Case-study и возможности использования этого метода в тематике Сервиса*

Ключевые слова: *Метода case-study, Сервис, кейс, решение кейса, проблема, обсуждение.*

Annotation. *The article describes the content of the case-study method and the possibilities of using this method in the subject of Service.*

Keywords: *Case-study method, service, case, case solution, problem, discussion.*

Respublikamizda uzluksiz ta'limni joriy etish jarayonida ta'lim mazmuni yangilanib bormoqda, o'quv dasturlari va o'quv fanlari bo'yicha DTS hamda malaka talablari modernizatsiyalanmoqda. Ushbu jarayon ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etmoqda.

Bo'lajak bitiruvchilarilarni yetuk mutaxassis bo'lishi, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga ko'tarish, yosh avlodni yuqori malakali kadrlar bo'lib tayyorlash uchun nafaqat sifatli darslik va o'quv qo'llanmalarni yozish, balki samarali o'quv-uslubiy majmuaga asoslangan o'qitish uslubini yaratish ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim-tarbiya jarayonida teskari aloqani amalga oshirish uchun, ya'ni olingan natijalarni tahlil etish uchun talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish hamda o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni yo'lga qo'yilishi lozim.

Biz quyida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitiladigan Servis xizmati fani mavzularini o'qitishda talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va ularni baholash yuzasidan Keys topshiriqlaridan foydalanishga oid tavsiyalar keltirmoqchimiz.

«Keys - stadi» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1920 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlarda iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday, Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“*Keys-stadi*” ning asosiy maqsadi – turli vaziyatli, shu jumladan, pedagogik vaziyatli masalalarni hal qilish mobaynida oʻquvchilarning konseptual sxema va modellaridan amaliy foydalanish malakalarini, shuningdek, muammolarni guruhiy tahlil qilish va qaror qabul qilish koʻnikmalarini ishlab chiqarish orqali bilimlarini mustahkamlashdan iboratdir¹.

“*Keys-stadi*” uslubi – nazariy bilimlarni amaliy masalalarni yechishga qoʻllash imkoniyatini beradigan quroldir. Uslub talabalarni mustaqil fikrlashga oʻrgatib qolmasdan, eshita bilish koʻnikmasini shakllantirish va turli - tumanlik nuqtai nazarni hisobga olish hamda oʻz fikrini asoslab berishga oʻrgatadi.²

“Keys stadi ” metodini amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibda audio - vizualish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklida); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ axborotni aniqlash.
2–bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshiriqni belgilash.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muommolar dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish oʻquv topshirigʻi yechimini izlash hal etish yoʻllarini ishlab chiqish.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash. ✓ muqobil echim yoʻllarini ishlab chiqish. ✓ har bir echimning imkoniyatlari va toʻsiqlarini tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash.

¹ A.A.Abduqodirov, F.A. Astanova, F.A. Abduqodirov “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba.-T.: Fan va texnologiyalar, 2014 y.

² A.A.Abduqodirov, F.A. Astanova, F.A. Abduqodirov “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. –T.: Fan va texnologiyalar, 2014 y.

<p>4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash taqdimot.</p>	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy – loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish.
--	--

Keys–stadi metodi quyidagilarni nazarda tutadi:

- keys topshirig'ini yozma ko'rinishda tayyorlash;
- talabalarning keys topshirig'ini mustaqil o'rganishlari va muhokama etish;
- professor-o'qituvchi rahbarligida auditoriyada hamkorlikda keys topshirig'ini muhokama etish;
- “muhokama yechimdan ham muhim” tamoyiliga rioya etish.

1- keys bayoni

Oshxonada ovqat tayyorlayotgan onasining yoniga kelgan 2-sinf o'quvchisi Shirin kartoshkani tozalamoqchi bo'ldi. Biroq, onasi: “Pichoqni joyiga qo'y! U bolalar o'ynaydigan o'yinchoq emas!”, - deb qizini urushib berdi. Shirin kartoshkani tozalashni juda-juda xohlagani uchun pichoqni joyiga qo'yishni istamamadi. Bundan jahli chiqqan onasi uning qo'lidan pichoqni tortib oldi. Onasining keskin harakatlaridan qo'rqib ketgan Shirin yig'lab yubordi va o'zining xonasiga chiqib, ketdi.

Keys savoli

1. Onasi bu kabi keskin harakatlarni Shirinning shikastlanishdan saqlab qolish uchun qildimi?

2. Bu vaziyatda ona qanday yo'l tutganda to'g'ri bo'lardi?

Manba:

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” va mehnat tarbiyasiga oid material hamda adabiyotlar. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lim yoshi bolalar o'rtasida mehnat tarbiyasini tashkil etishga doir material va adabiyotlar.

Keys tahlili

Darhaqiqat, pichoq xavfli sanaladi. Shu sababli ko'p holatlarda kattalar bolalarga pichoqqa tegishni man qiladilar. Shirinning onasi ham ana shu nuqtai nazardan yondashgan holda pichoqni qizining qo'lidan tortib oldi.

Talabalar uchun ko'rsatmalar

-keys mohiyatini yetarlicha anglab oling;

-muammoning to'g'ri echimini ifodalaydigan javoblar variantini tizimlashtiring;

- javoblar varianti tizimidan eng samarali javobni ajratib oling;
- ajratib olingan javoblar asosida jadvalni shakllantirishga uring;
- yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini ifodalovchi javoblar tizimini aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan javoblar tizimidan muammoning eng samarali yechimi bo'lgan javoblarni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan javoblar asosida yechimni bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

1. Bu vaziyatda garchi go'yo qizini shikastlanishdan saqlagan bo'lsa-da, onasini oqlab bo'lmaydi. Zero, Shirin pichoqdan shikastlanmagan bo'lsa-da, onasining qo'polligi va qo'rsigidan aziyat chekdi. Qolaversa, onasi pichoqning xavfli ekanligini bu tahlitda uqtirmasligi kerak edi.

2. Onaning quyidagi tahlitda yo'l tutishi boshlang'ich sinf o'quvchisida mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi:

a) onasi dastlab Shirinni o'ziga yordamchi bo'lib qolganligidan quvonayotganligini aytishi, ammo pichoq bilan ishlash xavfli ekanligini xotirjamlik bilan uqtirishi kerak;

b) bugungi kunda har bir xonadonda sabzavotlarni tozalashga moslashtirilgan xavfsiz oshxona anjomi bor, onasi Shiringa ana shu anjom bilan kartoshkani tozalab berishi mumkinligini aytishi lozim;

v) bordi-yu, bu oilada ana shunday oshxona anjomi bo'lmasa, u holda Shirinning onasi qizining ishtiyoqi, shashtini so'ndirmagan holda shaxsan o'zi nazorat qilib u kartoshkani tozalab bo'lguncha sabr qilishi va Shirin ishni tugatganidan keyingina pichoqning xavfli ekanligini, o'zi uyda yo'q bo'lganida unga tegmasligi kerakligini aytishi lozim. Bu holatda boshlang'ich sinf o'quvchisi onasining o'zi haqida qayg'urayotganligini dildan his qiladi.

2- keys bayoni

Oliy ta'lim muassasasida pazandachilik darslarida taomlar tayyorlashga oid amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib boriladi. Talabalar uchun taom tayyorlash uchun

texnologik kartalar bor, taom tayyorlash ketma-ketligi mavjud bo'lishiga qaramasdan, taom tayyorlashda ayrim talabalarning amaliy ko'nikmalarida quyidagi kamchiliklar uchraydi: ular texnologik jarayonni to'g'ri bajarmaslik, ijodiy va mustaqil fikr yurita olmaslik hamda taom tayyorlashda masalliq'larga turli xil ishlov berish texnologiyasini adashtirib yuborish.

Keys savoli

1. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz.
2. Mazkur muammoni hal etish uchun o'qituvchilar qanday ishlar olib borish lozim deb o'ylaysiz.
3. Siz bu muommoga qanday yechimlar taklif qilasiz.

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar

Texnologik ta'limi metodikasi, kasb tanlashga yo'llash oid darslik va o'quv qo'llanmalar; Pazandachilikka oid o'quv qo'llanmalar.

Talabalar uchun ko'rsatmalar

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan muommoning to'g'ri yechimini ifodalaydigan javoblar omilini tizimlashtiring.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq daxldor bo'lgan omilni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimini asoslang.
5. Yechimini bayon eting.

Keysni yechish jarayoni

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan tanishish orqali kichik guruhda muhokama qilinadi.
2. Tinglovchi kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda muommoni hal etishga zamin tayyorlaydigan omillarni aniqlaydi.
3. Kichik guruh a'zolari umumiy fikr asosida eng muhim omillarni bayon etadi.
4. Kichik guruhlarning fikrlari tahlil etiladi va umumiy xulosaga kelinadi.

O'qituvchining yechimi:

-talabalarni nazariy va amaliy darslarga qiziqishlarini yanada rivojlantirib borish.

-amaliy darslarda talabalarga har xil taomlarni ko'proq tayyorlatib borish, ya'ni amaliy ko'nikmalarini shakllantirib rivojlantirib borish zarur.

Dars mashg'ulotlarida o'quv maqsadlarini aniqlashda, talabalarning o'quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda yuqoridagi kabi keys topshiriqlaridan foydalanish talabalarning tafakkuri, dunyoqarashi va fikrlash doiralarini kengayib borishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. va b. Mehnat ta'limi metodikasi va kasb tanlashga yo'llash. Sharq 2014 yil.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya Fan Toshkent 2004 yil.
3. A.A.Abduqodirov, F.A. Astanova, F.A. Abduqodirov "Case-study" uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. –T.: Fan va texnologiyalar, 2014y
4. Abduqodirov. A. Pardaev A Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti Toshkent 2014 yil 366 b
5. Tolipov O.Q, Usmonboyeva M pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari Fan. Toshkent 2006 yil.
6. Sharipov. Sh.S, va boshqalar Kasbiy pedagogika. Metodik qo'llanma. TDPU Toshkent 2006 yil.
7. Mo'minova M. Ovqat tayyorlash jarayoni. –T. "Adabiyotlar jamg'armasi", 2006 yil, 600 bet.
8. Elmurodova S.R, Aminova Z.M. Pazandachilik texnologiyasi asoslari. Vuxoro 2004 yil, 227 bet.
9. Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern teacher. *Eastern european Scientific Journal–Germany*, 93-96.
10. Шарипова, Ш. С. (2018). Инновационные технологии в современном учебном процессе. *Молодой ученый*, (9), 185-188.
11. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования).
12. ШАРИПОВ, Ш. С., & АБДУРАИМОВ, Ш. С. (2018). МЕЖОТРАСЛЕВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ КАК ФОРМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. In *Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития* (pp. 58-65).
13. Шарипов, Ш. С. (2017). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВУЗОВСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ДВИГАТЕЛЬ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 32, pp. 44-46). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
14. Толипов, У. К., Баракаев, М., & Шарипов, Ш. С. (2001). Касбий педагогика.
15. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION,"

Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.

16. Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГЛИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).

17. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР КАСБИЙ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ. *Физико-технологического образование*, 1(1)

18. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБ-ҲУНАРГА ЙЎНАЛТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *Физико-технологического образование*, 1(1)

19. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.

20. Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72

21. Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортикова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА" ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС" ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука*, (20-3), 62-63.

22. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).

23. Orishev, J., & Оришева, З. (2021). "METROLOGIK O'LCHOVLAR" MAVZUSINI O'QITISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH . *Физико-технологического образование*, 2(2).

24. Orisheva, Z. (2020). ZARDO'ZLIKKA OID MAVZULARNI O'QUVCHILARGA O'RGATISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI. *Физико-технологического образование*, (1).